

**O‘ZBEKISTON XALQARO ISLOM AKADEMIYASI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSc.35/30.12.2019.Isl/Tar/F.57.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

O‘ZBEKISTON XALQARO ISLOM AKADEMIYASI

SAIDJALOLOV SAIDAFZAL SAIDXANBALOVICH

**MAHMUD ZAMAXSHARIYNING “RUUSUL-MASAIL“ ASARIDA
HANAFIY MAZHABI TALQINI**

24.00.01 – Islom tarixi va manbashunosligi

**TARIX FANLARI BO‘YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD)
DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI**

TOSHKENT- 2023

**Tarix fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati
mundarijasi**

**Contents of Dissertation Abstract of the Doctor of Philosophy (PhD) on
Historical Sciences**

**Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD) по
историческим наукам**

Saidjalolov Saidafzal Saidxanbalovich

Mahmud Zamaxshariyning “Ruus al-masail” asarida hanafiy
mazhabi talqini3

Saidjalolov Saidafzal Saidkhanbalovich

Interpretation of the Hanafi school in the work of Mahmud Zamakhshari
“Ruusul-masail”25

Saidjalolov Saidafzal Saidxanbalovich

Интерпретация ханафитского мазхаба в труде Махмуда Замахшари
“Руусул-масайл”45

E‘lon qilingan ishlar ro‘uxati

List of published works

Список опубликованных работ.....50

**O‘ZBEKISTON XALQARO ISLOM AKADEMIYASI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSc.35/30.12.2019.Isl/Tar/F.57.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

O‘ZBEKISTON XALQARO ISLOM AKADEMIYASI

SAIDJALOLOV SAIDAFZAL SAIDXANBALOVICH

**MAHMUD ZAMAXSHARIYNING “RUUSUL-MASAIL“ ASARIDA
HANAFIY MAZHABI TALQINI**

24.00.01 – Islom tarixi va manbashunosligi

**TARIX FANLARI BO‘YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD)
DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI**

TOSHKENT- 2023

Tarix fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida B2018.1.PhD/Tar.52 raqam bilan ro'yxatga olingan.

Dissertatsiya O'zbekiston xalqaro islom akademiyasida bajarilgan.
Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, ingliz, rus (rezyume)) Ilmiy kengash veb-sahifasi (www.iiu.uz) hamda "ZiyoNet" axborot-ta'lim portali (www.ziynet.uz)da joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar: **Agzamxodjayev Saidakbar Saidovich**
tarix fanlari doktori, professor

Rasmiy opponentlar: **Hasanov Ahadjon Ahmadjonovich**
tarix fanlari doktori, professor
Lutfillayev Hamidillo Murodillayevich
tarix fanlari nomzodi

Yetakchi tashkilot: **O'zbekiston Milliy universiteti**

Dissertatsiyasi himoyasi O'zbekiston xalqaro islom akademiyasi huzuridagi DSc.35/30.12.2019.Isl/Tar/F.57.01 raqamli Ilmiy kengashning 2023-yil "_____" avgust soat _____dagi majlisda bo'lib o'tadi. (Manzil: 100011, Toshkent shahri, A.Qodiriy ko'chasi, 11-uy, Tel: (99871) 2440056, Faks: (99871) 2440065, E-mail: info@iiu.uz).

Dissertatsiya bilan O'zbekiston xalqaro islom akademiyasi Axborot-resurs markazida tanishish mumkin. (135 raqami bilan ro'yxatga olingan). (Manzil: 100011, Toshkent shahri, A.Qodiriy ko'chasi, 11-uy, Tel: (99871) 2440091).

Dissertatsiya avtoreferati 2023-yil "_____" iyul kuni tarqatildi.
2023-yil "_18_" iyuldagi _7_ raqamli reyestr bayonnomasi).

D.R. Maxsudov

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash raisi, tarix fanlari doktori (DSc), professor

S.A. Rustamiy

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash ilmiy kotibi, filologiya fanlari doktori (DSc), professor

Z.M. Islomov

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash qoshidagi Ilmiy seminar raisi, filologiya fanlari doktori, professor

KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Jahon tamadduni taraqqiyotida musulmon huquqshunoslarining o'ziga xos o'rnini tanikli faqihlar asarlarining ingliz, fransuz va rus tillariga tarjima qilingani bilan izohlanadi. Mahmud Zamaxshariyning tilshunoslik, (اللغة) adabiyotshunoslik (الأدب), grammatika (النحو), ritorika (البلاغة), tafsirshunoslik (التفسير) kabi sohalardagi merosi asrlar davomida o'rganib kelinayotgan bo'lsa-da, allomaning Movarounnahr qiyosiy fiqhshunosligidagi (الفقه المقارن) o'rnini alohida tadqiqot talab etadi. Zamaxshariy fiqhiy merosini o'rganish, uning mazhablarga oid qarashlarini ochib beruvchi (رؤوس المسائل الخلافية بين الحنفية و الشافعية) "Ruusul-masail al-xilafiya bayn al-hanafiya vash-shofiiya"- "Hanafiy va shofei mazhablari orasida farqli bo'lgan asosiy masalalar" asarini o'rganish globalizatsiya sharoitida mazhab va mazhabsizlik borasida xilma-xil qarashlar avj olayotgan bir davrda sohada yuzaga kelayotgan savollarga ilmiy asoslangan javoblarni shakllantirish imkonini berishi bilan fiqhiy manbashunoslikda katta ahamiyat kasb etadi.

Dunyoning bir qator fatvo markazlarida fiqhiy manbalarni chuqur o'rganish, qiyosiy fiqhshunoslikka oid asarlarning mohiyatini ochiqlash borasidagi ishlar fiqhiy manbashunoslikning ahamiyatini ko'rsatib beradi. Bugungi kunda islom qiyosiy huquqshunosligi (مقارنة الحقوق في الاسلام) qiyosiy fiqhshunoslik (الفقه المقارن), fiqhiy manbalarni qiyosiy o'rganish (مقارنة المصادر الفقهية) borasida amalga oshirilayotgan tadqiqotlar, islom fiqhida mazhablarning o'rnini, mazhablarni qiyosiy o'rganish yo'nalishida olib borilayotgan ilmiy izlanishlar natijalari aqidaviy va mazhabiy taassubning oldini olish, variativ tafakkurni asoslash va bag'rikenglik muhitini mustahkamlashda muhim omil bo'ladi. Shu jihatdan, Mahmud Zamaxshariyning "Ruusul-masail" asari islom huquqining fiqhiy manbashunoslik, qiyosiy fiqhshunoslik, qiyosiy mazhabshunoslik kabi sohalardagi tadqiqotlar ko'lamini kengaytirishi, asoslarini mustahkamlashi va xulosalarini boyitishi bilan ularning ilmiy saviyasi yuqorilashiga xizmat qiladi.

Yangilanayotgan O'zbekistonda diniy-ma'rifiy sohada amalga oshirilayotgan islohotlar natijasida islom huquqi, islom huquqshunosligi, fiqh ilmi, fiqhiy manbashunoslik olimlarining ilmiy merosini o'rganish hamda uni jamoatchilikka yetkazishda keng imkoniyatlar yaratilmoqda. Xususan, olimlar tomonidan "Islom huquqshunosligi, hanafiy mazhabi va O'rta osiyolik faqihlar", "Fiqh" "Islom huquqi", "Islom tarixi va manbashunosligi" kabi kitoblar yozilgan. Shu nuqtai nazardan, islom olamida fiqh ilmi, fiqhiy manbashunoslik, qiyosiy fiqhshunoslik rivojida o'ziga xos mavqega ega bo'lgan Mahmud Zamaxshariyning islom huquqiga oid merosini tahlil etish hamda allomaning "Ruusul-masail" asarining diniy-ma'rifiy sohadagi masalalarni hal etishdagi ahamiyatini ko'rsatib berish muhimdir.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 16-apreldagi PF-5416-son "Diniy-ma'rifiy soha faoliyatini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi, 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son "2022-2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi farmonlari, 2017-yil 24-maydagi PQ-2995-son "Qadimiy yozma manbalarni saqlash, tadqiq va targ'ib qilish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari

to'g'risida"gi qarori hamda sohaga oid boshqa me'yoriy hujjatlarda belgilangan vazifalarni bajarishda, 2017-yil 13-noyabrda Farg'ona viloyatida ish boshlagan Islom huquqi maktabi va 2022-yildan O'zbekiston musulmonlari idorasi tizimida tashkil etilgan Fatvo markazi faoliyatini rivojlantirishda ushbu dissertatsiya ishi muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga mosligi. Dissertatsiya respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining I. "Demokratik davlatni va huquqiy jamiyatni ma'naviy-axloqiy va madaniy rivojlantirish, innovatsion iqtisodiyotni shakllantirish" yo'nalishi va Davlat ilmiy-texnika dasturlarining asosiy yo'nalishlaridan biri bo'lmish "Axborotlashgan jamiyat va demokratik davlatni ijtimoiy, huquqiy, iqtisodiy, madaniy, ma'naviy-ma'rifiy rivojlantirishda innovatsion g'oyalar tizimini shakllantirish va ularni amalga oshirish yo'llari" nomli ustuvor yo'nalishiga muvofiq amalga oshirilgan.

Muammoning o'rganilganlik darajasi. Mahmud Zamaxshariy merosi asrlar davomida G'arb va Sharq olimlari tomonidan tadqiq etilgan. Nemis olimlari K.Brokelman, S.Schmidtke, ingliz tadqiqotchilari Ch.Xorn, R.Jekson, ozar olimi Z.M.Buniyatov, rus olimi S.M.Prozorov, tatar olimlari B.Z. Xolidov va A.B.Xolidovlar¹ o'z tadqiqotlarida Zamaxshariy ijodi va merosi haqidagi ma'lumotlarni taqdim etganlar.

Sharqda Sam'oni, Yoqut Hamaviy, Ibn Xallikon, Ibn Qutlug'beka, Suyutiy, Feruzobodiy, Taftazoniy, Toshko'prizoda, Hoji Xalifa, Abdulhay Laknaviy² kabi muarrixlar Zamaxshariy hayoti va merosiga taalluqli ma'lumotlarni qayd etganlar. Ahmad Muhammad Xufiy, Fozil Solih Somroi, Mustafu Soviy Juvayniy, Bahiyja Boqir Hasaniy, Zohira Tavfiq Abu Keshk, Kamol Jabriy Abhariy kabi olimlar Zamaxshariy asarlari bo'yicha tadqiqot olib borganlar. Bu borada so'nggi yillarda xorijda amalga oshirilgan ishlar qatorida: Ibrohim ibn Abdulloh ibn Jumhur G'omidiyning "Abulqosim Jorulloh Mahmud ibn Umar Zamaxshariyning "Sharhul-fasih asari" nomli doktorlik dissertatsiyasini, Homid al-Xaffof tomonidan nashrga tayyorlangan "Imom Abulqosim Mahmud ibn Umar Jorulloh Zamaxshariy ta'lif etgan "Kavsar surasining mo'jizasi" asarini, Berlin Universiteti professori

¹ Ibrokliman, Karl. Tarix al-Adab al-Arabi. Al-Muqaddim al-Halim al-Najari - Ramadan ibn al-Tawab. Al-Qahira: Dar al-Ma'arif, 1977. V. 107; Al-Zamxshariy al-Munhaj fi al-Aصول. Taḥqiq va ta'dim sabina Shimidke. Bayrut: Dar al-Arabiyya lil-ulum Nashron, 2007. 84 v.;

Roy Jackson. Fifty key figures in Islam. New York: Routledge, 2006. P. 91-96; Charles F.Horne. Golden Necklaces Or Maxims Of Zamakhshari - Pamphlet. New York: Kessinger Publishing, LLC, 2006; 3.M. Буниятов. Государство хорезмшахов-ануштегинидов 1097-1231.-Баку: Элм,1999; Б.З.Холидов. А.Б.Холидов. Биография аз-Замахшари, составленная его современников ал-Андарасбани. Письменные памятники Востока. Историко-филологические исследования. Ежегодник. -М.: Наука, 1973. С. 203-212.; Prozorov S.M. «Гордость Хорезма» Махмуд аз-Замахшари и его титулованные ученики (= «Pride of Khorezm» Mahmud az-Zamakhshary and his titled Pupils) / Mahmyt Zamakhshary and Oriental Literary-Scientific Renaissance. Aşgabat- Daşoguz, 2007. С. 420—423(рус.), 261—262 (англ.).1999.

² Al-Sam'ani, al-Ansab. Bayrut: Maktaba ibn Taimiya, 1980. J. 1. V. 297-298; Ḥamvi, Baqut. Ma'jam al-Adab. Bayrut: Dar al-Garb al-Islami, 1993; Ibn Ḥalqan, Shams al-Din, and Wafiyat al-A'ayan wa'Anbi'اء al-Zaman. Bayrut: Dar Sadr, 2011. J. 5. V. 168-174; Al-Sayuti, Jalal al-Din. Bighiyat al-Wa'at fi Tabiqat al-Lughayn wa'Nahat al-Qahira: 'Isiy al-Bab al-Halbi, 1964. J. 2. V. 279; Al-Fayruzabadi, Ḥiy al-Din. Al-Balgha fi al-Tarajim al-A'ama al-Nawu wa' al-Luġa. Dimshiq: Dar Sa'd al-Din, 2000. V. 290; Al-Tafazzali, Sa'd al-Din. Kitab al-Nam al-Sawayiq fi Shrah al-Kalim al-Nawayiq lil-Asatid al-Zamxshariy. Al-Qahira: Matba'at Wadi al-Nayl, 1869; Ṭashkur Buriyaz, Ahmad ibn Mustafiy. Muftah al-Sa'ada Masbah al-Siyada fi Mawzu'at al-ulum. Bayrut: Dar al-Kutub al-Ilmiyya, 1985. V. 483.

Ḥajj al-Khalifa, Mustafiy bin 'Abd al-Lah. Sa'lm al-Wa'ud ilay Tabiqat al-Fuḥul. Istintibol: IRCICA, Yevromat, 2010. J. 3. V. 314-315; Al-Laknuy, Muḥammad 'Abd al-Ḥiy. Al-Fawaid al-Bahiyya fi Tabiqat al-Ḥanfiyya. Al-Qahira: Dar al-Kutub al-Islamiyya, 1970. V. 343-344.

Sabina Shmidtkening Mahmud Zamaxshariyning “Al-minhaj fil-usul” asariga bag‘ishlangan tadqiqotini, Charlz Horning “Oltin shodalar yoki Zamaxshariy aforizmlari” risolasini, Leopold Ayzenlorning “Zamaxshariyning “al-Qistos al-mustaqim” asarida arab tilidagi sanoq o‘lchov birliklari”³ kabi ilmiy izlanishlarini qayd etish lozim.

Mustaqillik yillarida O‘zbekistonda zamaxshariyshunoslikning o‘ziga xos maktabi yuzaga keldi. Alloma merosi ustida tadqiqot olib borgan va bu borada qimmatli ma’lumotlarni taqdim etgan: akademik A.Rustamov, professor U.Uvatov, fan nomzodlari M.Hakimjonov, R.Obidov, taniqli sharqshunos A.Abdujabborov fil.f.n., dots. N.Sulaymonova, fil.f.n. dots. M.Nosirovalar nomlarini ta’kidlash o‘rinli⁴.

Bugungi zamaxshariyshunoslikning taraqqiy etishida alloma merosiga o‘z ilmiy faoliyatining asosiy qismini bag‘ishlagan professor Zohidjon Mahmudovich Islomovning xizmatlarini alohida qayd etish zarur. So‘nggi yillarda Z.Islomov tomonidan bu borada ko‘plab xayrli ishlar amalga oshirildi. Uning rahbarligida Mahmud Zamaxshariy merosining barcha qirralarini qamrab olishga qaratilgan tadqiqotlar olib borildi, kitoblar va risolalar chop etildi, maqola va ko‘rsatuvlar taqdim etildi, nomzodlik dissertatsiyalari himoya qilindi⁵. Olib borilgan ilmiy izlanishlar natijasida Zamaxshariyning 91 ta asari borligi, ulardan 40 tasi dunyoning turli fondlarida saqlanayotgani ma’lum bo‘ldi.

Allomaning fiqhiy merosi nisbatan kam o‘rganilgan. 1977-yilda Shotlandiyaning Sent-Endryus universitetida Abdulhalim Muhammad tomonidan “Ruusul-masail”ning ilmiy-tanqidiy matniga bag‘ishlangan falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi amalga oshirildi. 1987-yilda livanlik professor Abdulla Nazir Ahmad “Ruusul-masail”ga bag‘ishlangan yirik tadqiqotini nashrdan chiqardi⁶. 2011-yilda Anbor universiteti professori Najm Abdulloh Ibrohim Isoviyning

³الحوفي، أحمد محمد. الزمخشري. القاهرة: دار الفكر العربي، 1966؛ الجويني، مصطفى الصاوي، منهج الزمخشري في تفسير القرآن و بيان إعجازه. القاهرة: دار المعارف، 1968؛ الحسنی، بهیجة الباقر. رسلتان للزمخشري. بغداد: مطبع مجمع العلم العراقي، مجلة مجمع العلم العراقي 1967. ج.15. ص.87-129؛ أبو كيشك، ظاهرة التوفيق. الأوجه البلاغية و الدلالية في تفسير الكشاف للزمخشري. موته (الأردن): مطبع جامعة الموته، 2002؛ الغامدي، إبراهيم بن عبد الله، شرح الفسيح للأبي القاسم محدود ابن عمر الزمخشري. مكة: جامعة أم القرى، 1996؛ أبو القاسم محدود ابن عمر الزمخشري. إعجاز سورة الكوثر. بيروت: دار البلاغة، 1991؛ Sabine Schmidtke. A Mutazilite creed of az-Zamahshari = al-Minhâğ fi uşul ad-dîn / ed. and transl. by Deutsche Morgenländische Gesellschaft. Stuttgart. “Steiner”. 1997. Charles F. Horne. Golden Necklaces Or Maxims Of Zamakhshari – Pamphlet. Kessinger Publishing, LLC. 2006. Leopold Eisenlohr. Arabic Quantitative Metrics in al-Zamakhshari’s al-Qistâs al-Mustaqim. The Ohio State University. 2011

⁴Рустамов А. Махмуд Замахшарий. -Тошкент.1971.; Махмуд Замахшарий. Нозик иборалар / Таржимон ва нашрга тайёрловчи У.Уватов. -Т.: Камалак, 1992. Махмуд аз-Замахшарий. Ал-Унмузаж / Нашрга тайёрловчи, муқаддима ва атамалар шарҳи муаллифи Абдуҳафиз Абдуҷабборов. -Т.: Тошкент ислом университети нашриёти, 2001.

⁵Исломов З. М. Махмуд Замахшарийнинг “Муқаддамул-адаб” асаридаги туркий феъллар таҳлили: Филол. фан. ном. дис... автореф. -Т.: Тошкент давлат университети (ЎзМУ),1993. Махмуд Замахшарийнинг “Муқаддамул-адаб” асарининг қўлэзма манбалари ва арабча-туркий феъллар сўзлигининг йиғма илмий-танқидий матни: филол. фан. докт. дис. автореф. -Т.: ЎзР ФА Қўлэзмалар институти, 1998.; Адаб илмининг дурдонаси -Т.: Тошкент ислом университети (ТИУ) нашриёти, 2002.; Муқаддамул-адаб (манбашунослик таҳлили) -Т.: ТИУ нашриёти, 2002.; Муқаддамул-адаб (матн) -Т.: ТИУ нашриёти, 2002.; Шарқ манбашунослигида “Муқаддима” ва унинг аҳамияти // Тарихий манбашунослик муаммолари: Тўплам. -Т.: 2003.; Махмуд Замахшарий // Мовароуннахрнинг буюк алломалари (араб тилида) : Тўплам. -Т.: ТИУ нашриёти, 2004.

⁶الزمخشري، محمود بن عمر. رؤوس المسائل الخلفية بين الحنفية و الشافعية. تحقيق و تقديم دكتور عبد الله نذير أحمد. بيروت: دار البشائر الإسلامية، 1987

“Zamaxshariyning “al-Kashshaf” tafsiridagi nikoh va mut’aga oid fiqhiy qarashlari (qiyosiy tahlil)” nomli risolasi Bag‘dod universiteti Adabiyot fakulteti jurnalida nashr qilindi. Unda professor Isoviy Mahmud Zamaxshariyning faqih sifadagi faoliyati nisbatan kam tadqiq etilganini ta’kidlab, o‘z risolasini allomaning nikohga oid qarashlariga bag‘ishlaganini qayd etgan⁷. 2011-yilda Toshkent islom universiteti professori, filologiya fanlari doktori Z.M.Islomov va tadqiqotchi S.Saidjalolovlar “Mahmud Zamaxshariy va fiqh ilmi” risolasini nashrdan chiqardilar⁸. 2019-yilda Bag‘dod universiteti Islomshunoslik fakultetida Umar Ahmad Fahdoviy tomonidan “Zamaxshariyning “al-Kashshaf” tafsiridagi fiqhiy ustuvorlik namunalarini faqihlar qarashlari bilan qiyoslanishi” mavzusida magistrlik dissertatsiyasi amalga oshirildi⁹.

Tadqiqotning dissertatsiya bajarilgan oliy ta’lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog‘liqligi. Dissertatsiya O‘zbekiston xalqaro islom akademiyasida 2020-2022-yillarda bajarilgan A-1-051–“Islomshunoslik muammolarini birlamchi manbalar va ajdodlarimiz diniy-ma’rifiy merosini tizimli tahlil qilish asosida yosh avlodda sog‘lom e’tiqodni shakllantirish” mavzuidagi ilmiy loyihasi doirasida amalga oshirilgan.

Tadqiqotning maqsadi Mahmud Zamaxshariyning “Ruusul-masail” asaridagi hanafiy mazhabi talqinini ochib berishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari quyidagilardan iborat:

- alloma asarlarini o‘rganishdagi turli yondashuvlarni ochib berish;
- Zamaxshariyning fiqhiy asarlari borasidagi qarashlarni ko‘rsatish;
- Mahmud Zamaxshariy merosida hanafiylik tavsifini aniqlash;
- “Ruusul-masail”dagi fiqhiy mavzular tahlilini ochib berish;
- Qur’on oyatlarining fiqhiy masalalarning yechimida qo‘llanilishini yoritish;
- asarda hadislar naqlining o‘ziga xos jihatlarini asoslash;
- Zamaxshariyning hanafiy mazhabi ta’limotini yoritishdagi yondashuvini aniqlash;
- allomaning muomalot masalalarini dalillashdagi uslubini ko‘rsatish;
- “Ruusul-masail”ning zamonaviy fiqhiy muammolar yechimidagi ahamiyatini asoslash hamda taklif va tavsiyalar ishlab chiqish.

Tadqiqotning obykti sifatida Mahmud Zamaxshariyning “Ruusul-masail” asapi olindi.

Tadqiqotning predmetini Mahmud Zamaxshariyning “Ruusul-masail” asapida bayon etilgan hanafiy mazhabi ta’limoti qarashlari tashkil etadi.

Tadqiqotning usullari. Tadqiqot mavzusini yoritishda ilmiy tavsiflash, tarixiylik, mantiqiylik, analiz, sintez va qiyosiy tahlil kabi tadqiqot usullaridan foydalanilgan.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

⁷ العساوي، نجم عبد الله إبراهيم، آراء الزمخشري الفقهية في باب الطلاق و المتعة من خلال تفسير الكشاف. بغداد: مجلة كلية الأدب جامعة بغداد، 2014. ج.98. ص.245-293

⁸Исломов З.М. Саилжалолов С.С. Махмуд Замахшарий ва фикх илми. –Т: Тошкент ислом университети нашриёт-матбаа бирлашмаси, 2011.

⁹الفهداوي، عمر أحمد اللطيف علي. نماذج من الترجيحات الفقهية في تفسيره الكشاف مقارنة بأراء الفقهاء. بغداد:جامعة بغداد، 019

Mahmud Zamaxshariyning “Ruusul-masail” asaridagi 406 ta fiqhiy masalada hanafiylar yondashuvini عندنا – “bizning nazdimizda” deb taqdim qilinishiga asoslangan holda allomaning fiqh ilmida hanafiy mazhabi vakili ekani isbotlangan;

X-XII asrlarda Xorazmshohlar davlatida hanafiy va shofey mazhabi vakillari faoliyat yuritishiga qaramay, Zamaxshariydek o‘z davrining yetakchi olimlari qiyosiy fiqhshunoslikka oid “Ruusul-masail” (رؤوس المسائل), Abul-Lays as-Samarqandiy “Muxtalaf ar-rivoya” (مختلف الرواية), Abu Zayd ad-Dabusiyy “Ta’sis an-nazar” (تأسيس النظر) kabi asarlarida hanafiy mazhabini qo‘llab-quvvatlagani bois mintaqada hanafiylik mustahkam maqomga ega bo‘lgani dalillangan;

“Ruusul-masail” hanafiylikning mashhur asarlaridan: “Tuhfa al-fuqaho” (تحفة الفقهاء), “Badayi’-as-sanayi” (بدائع الصنائع), “Kanz ad-daqiq” (كنز الدقائق), “Al-Hidoya” (الهداية), “Kifoya” (الكفاية) asarlari bilan solishtirilganda uning “Badayi’”dagi yondashuvga yaqin ekani “Qiblani aniqlash”ni ifoda qiluvchi 49-masala, “Vafot etgan kishidan zakot soqit bo‘lishi”ga bag‘ishlangan 104-masala, “Kasal inson boy bo‘lsa-da, unga haj vojib bo‘lmasligi” borasidagi 137-masalalar asosida isbotlangan.

“Ruusul-masail”dagi (رؤوس المسائل) “Balog‘atga yetmagan bolaning biror majburiyatni tan olishi” (إقرار) haqidagi 218-masala, “Musulmon kishi va zimmiy munosabatlariga bag‘ishlangan” (ذمي) 228-masala, “Mabtuta (مبتوتة) - ajrashish jarayonida eri vafot etgan ayolning meros olishi”ni ifoda qiluvchi 291-masala, “Mukotab – (مكتاب) va qul kishi (رقبة)ni ozod qilish (عتق)” borasidagi 299, 300, 301 va 397-masalalarda hanafiy mazhabining yondashuvi boshqa mazhablarga nisbatan bag‘rikeng ekani asoslangan.

Tadqiqotning amaliy natijasi quyidagilardan iborat:

Mahmud Zamaxshariy fiqh ilmiga qo‘shgan hissasi, tarixiy manbalarda zikr qilingan: “Mu’jam al-hudud”, “Ar-roiz fiy ilm al-faraiz”, “Shaqaiq an-No‘mon”, “Shofiy al-ayy”, “Muxtasar al-Quduriy” sharhi kabi olti fiqhiy asari mavjudligi, ulardan birgina “Ruusul-masail” qo‘lyozmasi topilgani va bu allomaning fiqhiy merosini asoslovchi yagona asar ekani aniqlangan;

Mahmud Zamaxshariyning fiqhiy salohiyati, uning yetuk faqih ekani, fiqh ilmida munozara qilish salohiyatiga ega ekani tarixiy va zamonaviy manbalar asosiida dalillangan;

hanafiy mazhabiga oid tabaqot kitoblar, Zamaxshariy merosiga oid zamonaviy tadqiqotlar, Zamaxshariy hayoti va faoliyatiga oid ilmiy tadqiqotlarda keltirilgan ma’lumotlar orqali Mahmud Zamaxshariy hanafiy mazhabining yetuk namoyandasi ekani, allomaning “Nozik iboralar”, “Oltin shodalar”, she’riy “Devon”, “Kashshof” va “Ruusul-masail” asarlaridagi qarashlarini keltirish orqali isbotlangan;

Mahmud Zamaxshariy nafaqat hanafiy mazhabi, balki shofey mazhabi fiqhini ham yaxshi bilgani, ikkala mazhabni qiyosiy tadqiq qilgani, o‘zining “Kashshof” va “Al-foiq” asarlarida turli mazhablar qarashlarini naql qilgani aniqlangan.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi. Tadqiqot “Ruusul-masail” asarining Shimoliy Irlandiyaning Dublin shahri Chester Biti kutubxonasi fondida №3600 inventar raqami ostida saqlanayotgan qo‘lyozmasiga, mazkur qo‘lyozma asosida 1977-yilda Shotlandiyaning Sent Endryus universitetida Abdulhalim Muhammad tomonidan amalga oshirilgan ilmiy-tanqidiy matniga va 1987-yilda livanlik doktor Abdulloh Nazir Ahmad tomonidan amalga oshirilgan zamonaviy nashriga qiyoslangan holda amalga oshirilgani, dissertatsiya mavzusi bo‘yicha e‘lon qilingan ishlar, jumladan, OAK tomonidan dissertatsiyalarning asosiy ilmiy natijalarini e‘lon qilish uchun tavsiya etilgan mahalliy va xorijiy ilmiy nashrlarda chop etilgan maqolalar, xalqaro hamda mahalliy ilmiy va ilmiy-amaliy konferensiyalarda keng muhokama qilingan ma‘ruzalar hamda tadqiqot natijalaridan kelib chiqqan taklif va tavsiyalarning amaliyotga joriy etilganligi, olingan natijalarning vakolatli tashkilotlar tomonidan tasdiqlanganligi bilan belgilanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqotning ilmiy ahamiyati undagi tahliliy mulohazalar, nazariy xulosa va takliflardan islom tarixi va manbashunosligi, fiqhiy manbashunoslik, mazhablarni qiyosiy o‘rfanish kabi fanlarga oid ilmiy izlanishlar, istiqbolli ilmiy tadqiqotlarda ilmiy-nazariy manba bo‘lib xizmat qilishi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati oliy o‘quv yurtlarida manbashunoslik, dinshunoslik, islomshunoslik, islom tarixi fanlari, shuningdek, o‘rta maxsus diniy bilim yurtlarida o‘qitiladigan “Fiqh (furu’ va usul) ilmi”, “Islomdagi mazhablar va oqimlar”, “Mazhablarni qiyosiy o‘rganish” kabi fanlar mazmunini yangi nazariy ishlanmalar bilan boyitish, darslik va o‘quv qo‘llanmalarini takomillashtirish, sohaga oid fakultativ darslar, seminar mashg‘ulotlarining va 2012-yilda Toshkent islom universiteti bakalavriat bosqichi uchun nashr etilgan “Islomdagi mazhablar va oqimlar”, 2019-yilda O‘zbekiston xalqaro islom akademiyasi bakalavriat bosqichi uchun nashr etilgan “Dinlardagi oqimlar va sektalar” 2021-yilda O‘zbekiston xalqaro islom akademiyasi Dinshunoslik va Islomshunoslik yo‘nalishi bakalavriat bosqichi talabalari uchun nashr qilingan “Islomdagi yo‘nalishlar va mazhablar” hamda 2022-yilda Qiyosiy dinshunoslik yo‘nalishi magistratura bosqichi talabalari uchun nashr etilgan “Yangi diniy harakatlar va destruktiv sektalar” o‘quv qo‘llanmalarining mazmuniga singdirilgani bilan belgilanadi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. Mahmud Zamaxshariyning “Ruusul-masail” asarida hanafiy mazhabi talqinini tadqiq etish orqali olingan natijalar asosida:

Mahmud Zamaxshariyning “Ruusul-masail” (رؤوس المسائل) asaridagi 406 ta fiqhiy masalada hanafiylar yondashuvini عندنا – “bizning nazdimizda” deb taqdim qilishiga asoslangan holda allomaning fiqh ilmida hanafiy mazhabi vakili ekani isbotlangani to‘g‘risidagi ilmiy xulosalar O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Imom Buxoriy xalqaro ilmiy-tadqiqot markazi buyurtmasi asosida tayyorlangan “O‘rta asr sharq allomalari va mutafakkirlarining tarixiy-falsafiy merosi” nomli kitobning mazmuniga singdirilgan. (O‘zbekiston

Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Imom Buxoriy xalqaro ilmiy-tadqiqot markazining 2023-yil 18-maydagi 02/239-sonli ma'lumotnomasi). Natijada, kitob Mahmud Zamaxshariy faoliyatiga oid milliy va xorijiy miqyosdagi so'nggi tadqiqotlarda aniqlangan yangi ma'lumotlar bilan boyitilgan;

“Ruusul-masail” (رؤوس المسائل) hanafiylikning mashhur asarlaridan: “Tuhfa al-fuqaho” (تحفة الفقهاء), “Badayi'-as-sanayi” (بدائع الصنائع), “Kanz ad-daqiq” (كنز الدقائق), “Al-Hidoya” (الهداية), “Kifoya” (الكفاية) asarlari bilan solishtirilganda uning “Badayi”dagi yondashuvga yaqin ekani “Qiblani aniqlash”ni ifoda qiluvchi 49-masala, “Vafot etgan kishidan zakot soqit bo'lishi”ga bag'ishlangan 104-masala, “Kasal inson boy bo'lsa-da, unga haj vojib bo'lmasligi” borasidagi 137-masalalar asosida isbotlangani to'g'risidagi ilmiy xulosalar O'zbekiston xalqaro islom akademiyasi huzuridagi Malaka oshirish markazida imom-xatiblar uchun tashkil qilingan o'quvlarda “Islomdagi mazhablar va oqimlar” fani mazmuniga singdirilgan. (O'zbekiston musulmonlari idorasining 2023-yil 19-maydagi 1527-sonli ma'lumotnomasi). Natija diniy soha vakillari uchun tashkil qilinadigan malaka oshirish o'quvlarida tinglovchilarning islomdagi mazhablar, xususan, hanafiy mazhabining mohiyati borasidagi bilimlarining kengayishiga xizmat qilgan;

X-XII asrlarda Xorazmshohlar davlatida hanafiy va shofeiy mazhabi vakillari faoliyat yuritishiga qaramay, Zamaxshariydek o'z davrining yetakchi olimlari qiyosiy fiqhshunoslikka oid “Ruusul-masail” (رؤوس المسائل), Abul-Lays as-Samarqandiy “Muxtalaf ar-rivoya” (مختلف الرواية), Abu Zayd ad-Dabusiy “Ta'sis an-nazar” (تأسيس النظر) kabi asarlarda hanafiy mazhabini qo'llab-quvvatlagani bois mintaqada hanafiylik mustahkam maqomga ega bo'lgani dalillangani borasidagi ilmiy xulosalar “Islomdagi yo'nalishlar va mazhablar” darsligi, “Islomdagi mazhablar va oqimlar” hamda “Dinlardagi oqimlar va sektalar” o'quv qo'llanmalari mazmuniga singdirilgan (O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Din ishlari bo'yicha qo'mitaning 2023-yil 19-maydagi 02-03/3883 sonli ma'lumotnomasi). Natija oliy ta'lim muassasasi “Islomdagi mazhablar va oqimlar”, “Mazhablarni qiyosiy o'rganish”, “Markaziy Osiyoda fiqh ilmi taraqqiyoti”, “Hanafiy mazhabi ta'limoti”, “Markaziy Osiyo mutafakkirlari” fanlarini ilmiy, o'quv-uslubiy jihatdan takomillashtirishga xizmat qilgan;

“Ruusul-masail”dagi (رؤوس المسائل) “Balog'atga yetmagan bolaning biror majburiyatni tan olishi” (إقرار) haqidagi 218-masala, “Musulmon va zimmiy munosabatlari”ga bag'ishlangan (ذمي) 228-masala, “Mabtuta (مبتوتة) - ajrashish jarayonida eri vafot etgan ayolning meros olishi”ni ifoda qiluvchi 291-masala, “Mukotab – (مكاتب) va qul kishi (رقبة)ni ozod qilish (عتق)” borasidagi 299, 300, 301 va 397-masalalarda hanafiy mazhabining yondashuvi boshqa mazhablarga nisbatan bag'rikeng ekani asoslangani xususidagi ma'lumotlardan “O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi O'zbekistondagi islom sivilizatsiyasi markazi faoliyatini yanada takomillashtirishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida”gi PQ-5186-son qaroriga 1-ilova “Jahon ilm-fani taraqqiyoti va sivilizatsiyasiga hissa qo'shgan ajdodlar ilmiy merosini tadqiq qilish hamda yangi yuksalish davridagi yutuqlarni targ'ib qilish” bo'yicha targ'ibot ishlarida

foydalanilgan. (O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi O‘zbekistondagi islom sivilizatsiyasi markazining 2023-yil 18-maydagi 08-17/438-sonli ma’lumotnoma) Natija buyuk allomalarimiz ijodidagi bag‘rikenglik g‘oyalarini aholi, xususan, yoshlar orasida targ‘ib qilishga xizmat qilgan.

Tadqiqot natijalarining aprotatsiyasi. Tadqiqot natijalari 3 ta xalqaro va 8 ta respublika ilmiy-amaliy konferensiyada muhokamadan o‘tkazilgan.

Tadqiqot natijalarining e‘lon qilinganligi. Tadqiqot mavzusi bo‘yicha 25 ta ilmiy ish, jumladan, O‘zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasi tomonidan dissertatsiyalar asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 10 ta maqola, shundan 3 tasi xorijiy jurnalda chop etilgan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiyaning tarkibi kirish, to‘qqizta paragrafni o‘z ichiga olgan uchta bob, xulosalar, foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati va ilovalardan iborat. Dissertatsiyaning hajmi 134 betni tashkil etadi.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Kirish qismida tadqiqot mavzusining dolzarbligi va zarurati asoslangan hamda muammoning o‘rganilganlik darajasi tahlil etilgan, tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga mosligi va dissertatsiya bajarilgan oliy ta‘lim yoki ilmiy-tadqiqot muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog‘liqligi ko‘rsatib berilgan, tadqiqotning maqsadi, vazifalari, obyekti, predmeti va usullari aniqlangan, tadqiqotning ilmiy yangiligi ma‘lum qilingan, tadqiqot natijalarining ishonchliligi, ilmiy va amaliy ahamiyati ko‘rsatib berilgan, tadqiqotning amaliy natijalari, amalda joriy qilinishi, aprotatsiyasi, e‘lon qilinishi hamda dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi bo‘yich ma‘lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning “**Mahmud Zamaxshariy fiqhiy merosini tadqiq etishning metodologik asoslari**” deb nomlangan birinchi bobi uch paragrafdan iborat bo‘lib, unda Zamaxshariy fiqhiy merosining tadqiq etilishi, allomaning asarlari borasida yondashuvlar tahlili, faqih sifatida shakllanishi va fiqhiy qarashlari tadqiq etilgan.

Birinchi bobning “*Alloma asarlarini o‘rganishdagi yondashuvlar*” deb nomlangan birinchi paragrafida alloma merosi bo‘yicha milliy va xorijiy tadqiqotchilar tomonidan olib borilgan izlanishlar haqida ma‘lumot berilgan.

Alloma merosini o‘rganishda uch xil yondashuv ko‘zga tashlanadi: Birinchisi, Mahmud Zamaxshariy asarlarini aniqlashdagi manbalarni tahlil qilish. Ikkinchisi, alloma asarlarining manbalarda qayd etilish takroriyiligini aniqlash. Uchinchisi, asarlarning qay darajada (chop etilgan, qo‘lyozma shaklida va topilmagan) tadqiq etilganini o‘rganish.

Zamaxshariy asarlarini o‘rganishda tadqiq qilinadigan manbalar uch guruhga bo‘lingan:

Birinchi guruh: Zamaxshariyning hayoti va asarlari haqida mo‘jaz ma‘lumotlarni taqdim qilgan manbalar. O‘rta asrlar Xorazm tarixiga oid manbalar, Xorazmshohlar davri adabiyotlari, arab adabiyoti va tilshunosligining taraqqiyot

bosqichlari, tarixi va shakllanishiga oid asarlar, tafsir va mufasssirlar hamda fiqh va faqihlarga oid ko‘plab “tabaqot” janridagi kitoblarda Mahmud Zamaxshariy haqida qisqacha bo‘lsa-da ma’lumot berilganini ko‘rish mumkin.

Ikkinchi guruh: Mahmud Zamaxshariy va uning ilmiy faoliyatiga bag‘ishlab, 1966-2014-yillar davomida amalga oshirilgan alohida tadqiqotlar qamrab olingan. 1966-yilda Qohira universiteti professori Ahmad Muhammad al-Xufiy, 1968-yilda Misrdagi “Aynush-shams” nomli universitet ustozi, doktor Mustafo Soviy Juvayniy, 1971 yilda taniqli zamaxshariyshunos, Bag‘dod universiteti Adabiyotshunoslik fakulteti ustozi doktor Fozil Solih Samroi, 1973-yilda sharqshunos olimlar B.Z.Xolidov va A.B. Xolidovlar, 1977-yilda Qohirada Doktor Murtazo Oyatulloh Sheroziy, 1979 yilda Angliyaning qadimiy Dyurem universitetida tadqiqotchi Azmiy Yuksal, 1982-yilda Turkiyaning Fotih universitetida Abdulhamid Qosim Najjor, 2001-yilda Iroq fanlar akademiyasi A‘zamiya universitetida doktor Rashid Abdurahmon al-Ubaydiy, 2014-yilda Zamaxshariy hayoti va ilmiy faoliyatini keng qamrovda tahlil qilgan Kamol Jabariy Abhariy tadqiqotlari haqidagi ma’lumotlar tahlil qilingan.

Uchinchi guruh: Mahmud Zamaxshariyning muayyan asari nashriga oid tadqiqotlar. 1967-yilda Iroq fanlari akademiyasi jurnalida Zamaxshariyning “Al-mufrad val-muallaf fin-nahv” – “Grammatikada yolg‘iz va qo‘shma so‘zlar” hamda “Mas’alatun fiy kalima ash-shahada” - “Shahodat kalimasiga doir masala” nomli risolalari, 1972-yilda allomaning yana bir asari - “Al-muhajot bil masail an-nahviya” risolasi, 1988-yilda “Zamaxshariy tafsirida qur‘oniy balog‘at ilmi va uning balog‘at ilmiga oid tadqiqotlarga ta’siri”, 2002-yilda Iordaniyaning Muta universitetida “Zamaxshariyning “Kashshof” tafsirida balog‘at ilmi va dalolat ilmiga oid yondashuvlar”, 2002-yilda “Zamaxshariy tafsiridaga Qur‘on qiroatlarida lug‘aviy va grammatik yondashuv” nomli tadqiqot, 2002-yilda Bag‘dod universitetida “Farroning “Qur‘on ma’nolari” tafsiri va Az-Zajjajning “Qur‘on ma’nolari va e’robi” asarining Zamaxshariy “Kashshof” tafsiriga ta’siri” deb nomlangan nashr¹⁰, 2005-yilda Iordaniyaning Yarmuk universitetida “Zamaxshariy tafsirida mutavotir qiroatlar” deb nomlangan monografiya, 1996-yilda Saudiya Arabistonining “Ummul-quro” universitetida “Abulqosim Jorulloh Mahmud ibn Umar Zamaxshariyning “Sharhul-fasih” asari” doktorlik dissertatsiyasi, 1997-yilda Berlin Universitetida Zamaxshariy qalamiga mansub “Al-minhaj fil-usul” asarining ilk nashri, 2006-yilda “Kessinger Publishing” nashriyotida ingliz tilida “Oltin shodalar yoki Zamaxshariy aforizmlari” risolasi, 2011-yilda AQSHning Ogoyo Universitetida amalga oshirilgan “Zamaxshariyning “al-Qistos al-mustaqim” asarida arab tilidagi sanoq o‘lchov birliklari”¹¹ nomli tadqiqotlar nashr etildi.

Mahmud Zamaxshariyning barcha asarlarini qamrab oluvchi tadqiqotlar juda kam. O‘tgan qariyb o‘n asr davomida dunyoning turli nuqtalaridagi tarixchi olimlar, tadqiqotchilar o‘z imkoniyatlari darajasida alloma asarlari ro‘yxatini

¹⁰سعدون، أحمد علي. أثر معاني القرآن للفراء و معاني القرآن و إعرابه للزجاج في الكشاف الزمخشري. بغداد: جامعة بغداد، 2002

¹¹Leopold Eisenlohr. Arabic Quantitative Metrics in al-Zamakhshari’s al-Qisrâs al-Mustaqîm. The Ohio State University. 2011.

tuzganlar. Bu orqali Zamaxshariy asarlarini o'rganishda bir-biridan farq qiluvchi yondashuvlar yuzaga kelgan. Shuning uchun asarlarning umumiy soni, nomi, qaysi sohaga mansubligi borasida yaxlitlik yo'q. Tadqiqotda Mahmud Zamaxshariyning 91 ta asari uch guruhga bo'ldi. Buning uchun alloma asarlari haqida kengroq ma'lumot bergan 10 ta muallif ajratib olindi. Arab tilidagi manbalarga ko'ra, zamaxshariyshunoslikda muarrixlardan Yoqut Hamaviy, Ibn Xallikon, Ibn Qutlubug'o, Toshko'prizoda, Ismoil Bag'dodiy asarlariga murojaat ko'p. Zamonaviy tadqiqotchilardan Ahmad Muhammad Xufiy, Fozil Solih Somroi, Bahiyja Boqir Hasaniy, Mustafu Soviy Juvayniy va Kamol Jabriy Amin Abhariylarning Mahmud Zamaxshariyga doir olib borgan tadqiqotlari va nashrlari muhimdir. Alloma asarlari zikr qilingan 10 ta muarrix va muallif asarlari va qarashlariga tayanilgan holda tasniflandi.

Birinchi guruhga 10 ta manbaning deyarli barchasida qayd qilingan Zamaxshariy asarlari kiritildi. Ular 31 tani tashkil qildi. Ikkinchi guruhga nisbatan ko'proq manbalarda nomi qayd etilgan asarlar kiritildi. Ular 18 tadir. Uchinchi guruh tarixiy manbalarning ayrimlarida zikr qilingan asarlardan tarkib topdi. Ularning umumiy adadi – 42 ta.

Zamaxshariyshunoslikda alloma asarlariga yondashuvda quyidagi tasnif mashhurdir. Zamaxshariy hayoti va merosi borasida izlanish olib borgan ko'plab tadqiqotchilar alloma merosini uch qismga bo'lganlar:

1. Matbu' - chop etilgan.
2. Maxtut - qo'lyozmasi mavjud.
3. Mafqud - topilmagan asarlar.

Zamaxshariyshunoslikning muhim jihati mazkur tasnif ko'p qo'llanilgani va tasnifdagi asarlarga yondashuv va ularning adadi muntazam o'zgarib turganidadir. Bunga ko'plab misollar keltirish mumkin. Masalan, 1966-yilda taniqli zamaxshariyshunos olim professor Ahmad Muhammad al-Xufiyning "Zamaxshariy" nomli yirik va hozirgacha mo'tabar asarida allomaning "Ruusul-masail" va "Al-minhaj fil-usul" asarlari mafqud – topilmagan asarlar ro'yxatida zikr qilingan. Muayyan muddat o'tganidan so'ng "Ruusul-masail"ning Chester Bitida, "Al-minhoj"ning esa, Berlinda saqlanayotgani ma'lum bo'ldi. Mafqud asarlar qatoridan maxtut asarlar qatoriga o'tdi. 1987-yilda "Ruusul-masail", 1997-yilda "Al-Minhoj" chop etildi. Ayni paytda, bu ikki asar Mahmud Zamaxshariy asarlar tasnifining matbu', ya'ni chop etilgan asarlar qatorida. Alloma asarlarining to'liq ro'yxati oxiriga yetmagani va ayni paytgacha yo'qolgan deb hisoblangan asarlari topilayotgani sabab turli tadqiqotlardagi asarlar ro'yxati bir-biridan farq qiladi.

Tadqiqotda Mahmud Zamaxshariyning matbu' (nashr qilingan) asarlari 27 ta, maxtut (qo'lyozma) asarlari 20 ta va mafqud (topilmagan) asarlari 44 ta ekani aniqlandi.

Birinchi bobning "*Zamaxshariy fiqhiy qarashlarining xususiyatlari*" nomli ikkinchi paragrafida Zamaxshariy fiqhiy qarashlarining shakllanishiga ta'sir ko'rsatgan omillar: XI-XII asrlarda fiqh ilmi taraqqiyotidagi an'analar, alloma bilan zamondosh faqihlar faoliyati, mazkur muddatda faoliyat yuritgan hanafiy,

molikiy, shofeiyy va hanbaliy faqihlari hamda alloma fiqhiy qarashlarining xususiyatlari ochib berilgan.

Zamaxshariyning faqih sifatida shakllanishining **birinchi omili** sifatida alloma yashagan muhit, Xorazmda turli fanlar qatorida fiqh ilmining rivojlanishi, Xorazm va Iroq fiqh maktablari o'rtasidagi ilmiy aloqalar mavjudligi, xorazmlik sarmoyadorlarning Bag'dodda Imom A'zam maqbarasi hududida hanafiy mazhabi rivojida muhim o'rin tutgan va ayni paytgacha faoliyat yuritib kelayotgan A'zamiya madrasasining va Imom A'zam mashhadi (ziyoratgohi)ning barpo qilishi, Zamaxshariy mazkur mashhadni ziyorat qilgani uning Iroq fiqhiy maktabi bilan yaqin aloqada bo'lganini ko'rsatishi, Zamaxshariyning fiqhdagi ustoz Shayxul-islom Alouddin Sadid ibn Muhammad al-Xayyotiy al-Xorazmiy ekani, Bag'dodda fiqh ilmini Qozi Abu-l-Husayn Ahmad ibn Ali Domg'oniy (1090-1145)dan o'rgangani, alloma shogirdlari va izdoshlari orasida hanafiy mazhabi faqihlari borligi asos qilingan.

Zamaxshariyning faqih sifatidagi e'tirofining **ikkinchi omili** sifatida allomaning fiqh ilmiga oid asarlari mavjudligi keltirilgan:

1. "Mu'jam al-hudud" ("Hadlar qomusi"). Islom huquqidagi "had" tushunchasiga bag'ishlangan asar.

2. "Ar-roiz fi ilm al-faroiz" ("Faroiz ilmi o'rgatuvchisi"). Islom huquqidagi meros masalalari to'g'risidagi qo'llanma

3. "Ruusul-masail al-xilafiya bayn al-hanafiya va-sh-shafiiyya" – "Hanafiy va shofe'iy mazhablari o'rtasida farqli bo'lgan asosiy masalalar"ga bag'ishlangan asar.

4. "Shaqoiq an-Nu'mon fi manaqib an-Nu'mon" ("No'mon tazkirasidagi qizil guldasta") hanafiy mazhabi asoschisi Imom A'zam Abu Hanifa No'mon ibn Sobitga bag'ishlangan asar.

5. "Shafil-'ay min kalam ash-Shafiiy" ("Shofe'iyning dardga davo kalomi") shofe'iy mazhabi asoschisi Imom Shofe'iy haqidagi asar.

6. Shu bilan birga ba'zi manbalarda Zamaxshariyning hanafiylikdagi mashhur kitob "Muxtasari Quduriy"ga sharh yozgani qayd etiladi¹².

Mahmud Zamaxshariyning yuqorida zikr etilgan oltita fiqhiy asarlaridan birgina "Ruusul-masail"ning qo'lyozmasi topilgan.

Mahmud Zamaxshariyning faqih sifatida e'tirof etilishining **uchinchi omili** sifatida alloma asarlari fiqh ilmi masalalariga muayyan darajada e'tibor berilgani asos qilingan. Masalan, Mahmud Zamaxshariy asarlari orasida eng yuksak o'ringa ega bo'lgan "Al-Kashshof an haqiq g'avomiz at-tanzil va uyun al-aqovil fi vujuh at-ta'vil" ("Qur'onda yashirin haqiqatlarni va uning ta'vilidagi rivoyatlarni ochuvchi") tafsirida yuzdan ortiq o'rinda Imom A'zam Abu Hanifa No'mon ibn Sobit va uning Muhammad ibn Hasan Shayboniy, Abu Yusuf Ya'qub ibn Ibrohim al-Ansoriy hamda Zufar ibn Huzayl kabi shogirdlarining oyatlardan olinadigan fiqhiy hukmlar borasidagi qarashlari naql qilingan.

Allomaning hadisshunoslik borasida mo'tabar manba bo'lgan "Al-foiq fi g'arib al-hadis" ("Hadislardagi nodir ma'nolarni sharhlovchi a'lo qo'llanma")

¹²هدية العارفين. مكتبة الشاملة. المكتبة الإلكترونية. www.shamela.ws

asarida turli fiqhiy mazhablar qarashlari bayon qilingan. Shu yo‘sinda hadislardan kelib chiqadigan fatvolar ayon qilingan.

Zamaxshariy “Nozik iboralar” va “Oltin shodalar” kabi asarlarida, shuningdek, she‘riy “Devon”ida ham fiqh ilmi namoyandalarini vash etgan.

Mahmud Zamaxshariyning faqih sifatidagi e’tirofining **to‘rtinchi omili** sifatida tarixiy manbalarda, hanafiy mazhabiga oid yozilgan tabaqot janridagi adabiyotlarda, zamaxshariyshunoslikka oid tadqiqotlarda allomaning yetuk faqihlar qatorida zikr qilinishi asos qilingan. Bu qarash Al-Qurashiy (1297-1373), Ibn Qutlug‘beka (1399-1474) , alloma Abdulhay Laknaviy, iroqlik olim doktor Bahiyja Boqir al-Hasaniy, livanlik doktor Abdulloh Nazir Ahmad, eronlik Doktor Mustafu Oyatulloh Sheroziy asarlarida keltirilgan fikrlari bilan dalillangan.

Birinchi bobning “*Mahmud Zamaxshariy merosida hanafiylik tavsifi*” nomli uchinchi paragrafida allomaning hanafiy mazhabi vakili ekani asarlarida mazkur mazhab borasida bildirgan qarashlari, fiqhiy masalalarni hanafiy mazhabi nuqtai nazaridan yoritgani va bibliografik manbalarda, tabaqot janridagi asarlari Zamaxshariy hanafiylik vakili ekani haqidagi asoslari bilan bayon qilindi.

Fiqh sohasida Zamaxshariyning Imom A‘zam Abu Hanifa No‘mon ibn Sobit (699-767) asos solgan mazhabga mansub ekani o‘z isbotini topgan. Buni quyidagi uch omil bilan izohlash mumkin:

Birinchi omil: Bibliografik asarlarda va alloma ilmiy merosiga bag‘ishlangan tadqiqotlarda Zamaxshariyning hanafiy mazhabi vakili sifatida e’tirof etilishi.

Qomuslarda Mahmud Zamaxshariy hanafiy mazhabi faqihlari qatorida zikr etilgan. Bunga: Al-Qurashiyning (1297-1373) “Al-Javahir al-muziya fiy tabaqot al-hanafiya”, Ibn Qutlug‘bekaning (1399-1474) “Tojut-tarajim fiy tabaqot al-hanafiya” va Yofi‘iyning “Mir‘ot al-janon” kabi asarlarini misol sifatida keltirish mumkin¹³.

Hanafiylikning mashhur namoyandalaridan biri - Abdulhay Laknaviy (1848-1886) “al-Favaid al-bahiya fi tarajim al-hanafiya” asarida Zamaxshariyning hanafiy mazhabining ulug‘ faqihlaridan hisoblagan. “Shazarot az-zahab fiy axbar man zahab” nomli tarixiy manbada esa, alloma mazkur mazhabning peshvolaridan deb vash etilgan.

2013-yilda Bayrutdagi “Dar an-navadir” nashriyoti Mahmud Zamaxshariyning alloma Muhammad Sa‘iyd al-Foruqi at-Tarobulusiy tomonidan nashrga tayyorlangan “Sharh al-maqomat” asarini taqdim qildi. Mazkur kitobning titul qismi alohida e’tiborga loyiq. Kitob muallifi Zamaxshariyning “Al-imam Jorulloh az-Zamaxshariy Abul-qosim Mahmud ibn Umar ibn Muhammad al-Xorazmiy al-Hanafiy” degan nom bilan tanishtiradi. Odatda aksar manbalarda Zamaxshariy haqida so‘z borganda uning mo‘tazila ekaniga urg‘u beriladi. Mazkur asarda alloma nomiga “hanafiy” iborasining qo‘shilishi allomaning hanafiy mazhabi namoyandasi ekanini tasdiqlayli¹⁴.

¹³القرشي، عبد القادر ابن أبي الوفاء. الجواهر المضوية في طبقات الحنفية. حيدر آباد، 1910. ص.493، اللكنوي، محمد عبد الحي. الفوائد البهية في طبقات الحنفية. القاهرة: دار الكتب الإسلامية، 1970. ص.343-344، ابن قطلوبغا، قاسم. تاج التراجم. بيروت: دار القلم، 2009. ص.291-292

¹⁴الطرابلسي، محمد سعيد الفاروقي. شرح المقامات الزمخشري. بيروت: دار النوادر، 2013

Ikkinchi omil: Zamaxshariy ta'lif etgan "Kashshof" tafsirida Abu Hanifa va uning shogirdlari qarashlariga ustuvor maqom berilgani. "Kashshof" tafsiri tadqiqotchilari undagi fiqhiy masalalarning Kufa fiqhiy maktabi asosida yoritilganini qayd etganlar. 1998-yilda "Maktaba al-abiykon"da Odil Ahmad Abdul-mavjud, Ali Muhammad Muhammad va "Azhar universiteti Arab tili fakulteti Balog'at va tanqidiy tilshunoslik fani ustози, doktor Fatxiy Abdurrahmon Ahmad Hijoziy ishtirokida Zamaxshariynig "Kashshof" tafsiri chop etildi¹⁵. 6 juz, qariyb 4000 sahifadan iborat mazkur nashrning birini juzida Mahmud Zamaxshariyning hayoti, tafsir ilmining rivojlanishi haqida tahliliy ma'lumotlar berilgan. Zamaxshariy "Kashshof"da yuzdan ortiq o'rinda Imom A'zam Abu Hanifa No'mon ibn Sobit va uning Muhammad ibn Hasan Shayboniy, Abu Yusuf Ya'qub ibn Ibrohim al-Ansoriy hamda Zufar ibn Huzayl kabi shogirdlarining oyatlardan olinadigan fiqhiy hukmlar borasidagi qarashlarini naql qilgan.

Uchinchi omil: Mahmud Zamaxshariyning o'zi hanafiy mazhabida ekanidan faxrlangani. Mahmud Zamaxshariy hanafiy mazhabi vakili bo'lganidan faxrlangan va bu turli davr tarixchilari tomonidan yozilgan asarlarda qayd etilgan. Allomaning bir qancha asarlarini tadqiq etib, nashr etgan doktor Bahiyja Boqir al-Hasaniy mashhur muarrix Ibn Xallikonning "Vafayotul-a'yon"idan, doktor Abdulloh Nazir Ahmad esa misrlik olim Ahmad Muhammad Al-Hufiyning "Az-Zamaxshariy" asaridan Zamaxshariy qalamiga mansub quyidagi nazmni naql qilishgan:

و أسند ديني و اعتقادي و مذهبي
إلى حنفاء اختارهم حنائفا
حنيفية أديانهم حنيفية
مذاهبهم لا يبتغون الزعانفا

*"Din-u e'tiqodimni, maslaku mazhabimni
Hanafiylarga bog'ladim, ularni ixtiyor etdim.
Diyonatlari haqiqiy, mazhablari hanafiy
Mashaqqatni talab etmas, yo'llaridan ravon ketdim"*¹⁶.

Mazkur misralar Mahmud Zamaxshariyning hanafiy mazhabida bo'lganini anglatadi. She'rdagi "اعتقادي", ya'ni "e'tiqodimni" deya, aqida borasida ham hanafiy mazhabida ekanini alloma tomonidan e'tirof etilishi e'tiborga loyiqdir.

Zamaxshariy "Atvaq az-zahab" asarining 42-maqolasi hanafiy ulamolarga bag'ishlangan. Unda alloma quyidagilarni qayd etadi: "Ular hanif dinga hanafiy ilmni qo'shdilar va hanafiy ilmga ahnafiy hilmni jamladilar.

Dissertatsiyaning ikkinchi bobi "**Ruusul-masail**" asarining **fiqhiy manbashunoslik sohasi rivojidadagi o'rni**" deb nomlangan. Unda asarning yagona qo'lyozmasi va tarkibiy tuzilishi tahlil qilingan. Qo'lyozmada zikri kelgan Qur'on Karim oyatlarining adadi, o'rni va tafsiri ochib berilgan. Asarda naql etilgan hadisi shariflar rivoyatiga muhaddislar munosabati ochib berilgan.

¹⁵الزمخشري، محمود بن عمر. الكشاف عن حقائق التنزيل و عيون الأقاويل في وجوه التأويل. رياض: مكتبة أبيكان، 201
¹⁶الحوفي، أحمد محمد. الزمخشري. القاهرة: دار الفكر العربي، 1966. ص. 91

Ikkinchi bobning *“Ruusul-masail”* dagi *fiqhiy mavzular tahlili* nomli birinchi paragrafida qo‘lyozmaning 42 ta bobiga tegishli 406 ta masala haqida ma‘lumot berilgan. *“Ruusul-masail”* ning Irlandiya poytaxti Dublin shahridagi Chesterbiti kutubxonasi fondida saqlanayotgan CBL 3600 raqamli yagona qo‘lyozmasi asosida qo‘lyozmaning tarkibi, mundarijasi, mavzulari, yozilish uslubi ochib berilgan. Chesterbiti kutubxonasiga qadar saqlangan o‘rinlari borasida ilk tadqiqiy yondashuvlar va mushohadalar ilgari surilgan.

Dastlab, qo‘lyozmani ko‘chirgan xattot Jandar ibn Abdurahmon Shibliy haqida ma‘lumot berilgan. Shibliy sulolasining kelib chiqishi tarixidan va qo‘lyozmaning uzoq muddat Damashqdagi mashhur Umaviylar masjidida saqlanganidan olingan xulosalar orqali *“Ruusul-masail”* qo‘lyozmasi Xorazmda emas, Iroqda yoki Suriyada ko‘chirilgan, degan fikr ilgari surilgan. Qo‘lyozmaning dastlabki sahifalaridagi bitiklar tahlili orqali u asosan hanafiy mazhabi olimlari tomonidan ko‘proq o‘rganilgani aniqlangan. *“Ruusul-masail”* dagi fiqhiy mavzular qiyosiy fiqhshunoslik yo‘nalishida yozilgan *“Muxtalaf ar-rivoya”* va *“Ta’sis an-nazar”* bilan solishtirilgan. Bu uch asarning farqli jihatlari tahlil qilingan. *“Muxtalaf ar-rivoya”* ning qamrovi juda kengligi, *“Ta’sis an-nazar”* dagi fiqhiy mavzular nisbatan kam sonli ekani e‘tiboridan *“Ruusul-masail”* ga bo‘lgan e‘tibor asrlar davomida susaymaganini ko‘rsatadi. Asar ilm al-xilaf (علم الخلاف) dagi muhim bo‘lgan mavzularni tushunarli va asosli tarzda yoritgan.

Masalalarni qisqa va lo‘nda bayon qilish usuli fiqh ilmida qo‘llaniladi va bunday *“muxtasar”* usuldan Mahmud Zamaxshariyning ta’sirlangani seziladi. Muxtasar usulining qo‘llanilish sababi ta’lim, ya’ni o‘quvchilarning o‘zlashtirishi va esda saqlab qolishi oson bo‘lishi uchundir. Binobarin, asarning asosiy mavzusi ham hanafiy va shofey mazhablariga tegishli muhim fiqhiy masalalarni qisqa va aniq tarzda yoritib berishdir. Tadqiqotchilar *“Ruusul-masail”* ni mazhablarni qiyosiy o‘rganish bo‘yicha nodir manba sifatida e‘tirof etishgan. Bunga asar mo‘jaz bo‘lsa-da, fiqh ilmining barcha sohalarini qamrab olganini dalil qilib, uni quyidagicha izohlashgan: *“Agar *“Ruusul-masail”* ni fiqhiy mazhablarni endi o‘rganayotgan muhtadiy, ya’ni boshlovchi o‘qisa, mazhablar qarashlari haqida yetarli ma‘lumotga ega bo‘ladi. Agar ilmda yuqori darajaga erishgan muntahiy, ya’ni tugallovchi o‘qisa, mazhablar haqida o‘rganganlarini qayta eslab oladi”*.

Ikkinchi bobning *“Qur’on oyatlarining fiqhiy masalalar yechimida qo‘llanilishi”* nomli ikkinchi paragrafida qo‘lyozmada hanafiy mazhabi dalillari sifatida zikr qilingan hukm oyatlarining o‘rni, adadi va tafsiri bayon qilingan.

Qo‘lyozmada Qur’oni karimning 34 surasidan 77 ta oyatni 101 ta o‘rinda fiqhiy masalalarga dalil sifatida zikr qilinadi. *“Baqara”* surasining 115-oyati Qur’on tartibiga ko‘ra qo‘lyozmadagi dastlabki oyat bo‘lsa, *“Bayyina”* surasining 5-oyatini so‘nggi oyat sifatida qayd etish o‘rinli. Qo‘lyozma tartibi bo‘yicha *“Anfol”* surasining 11-oyati asardagi dastlabki oyat, *“Nahl”* surasining 75-oyati oxirgi oyatdir. Bir sahifada bittadan uchtagacha oyat zikr qilingan o‘rinlar uchraydi. Shundan oyatlar 77 ta bo‘lsa-da, ular zikr etilgan o‘rinlar 101 tadir. Faqat *“Moida”* surasining 6-oyatiga qo‘lyozmaning 14 o‘rnida murojaat bor. Islom fiqhining dastlabki manbasi Qur’oni karim. Faqih uchun Qur’on oyatlari mazmun-

mohiyatini chuqur bilish talab etiladi. “Ruusul-masail” qo‘lyozmasini tadqiq qilish jarayonida Mahmud Zamaxshariy Qur’oni karim oyatlari tafsirini yaxshi bilganini anglash mumkin. Qo‘lyozmada zikr etilgan oyatlarning “Kashshaf” tafsiridagi sharhlari qiyoslanishi orqali “Ruusul-masail”ning yozilgan vaqti aniqlik kiritishga harakat qilindi va “Ruusul-masail” allomaning mashhur tafsiridan keyin yozilgan degan xulosagan kelindi.
